

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI
RESPUBLIKA O‘RTA TIBBIYOT VA FARMASEVTIKA XODIMLARI
MALAKASINI OSHIRISH VA ULARNI IXTISOSLASHTIRISH MARKAZI**

«KELISHILDI»

Respublika o‘rta tibbiyot va
farmasevtika xodimlari
malakasini oshirish va ularni
ixtisoslashtirish markazi



Markaziy at raisi
M. X. Xakimova
«12» dekabr 2025 y.

« TASDIQLAYMAN»

Respublika o‘rta tibbiyot va
farmasevtika xodimlari malakasini
oshirish va ularni ixtisoslashtirish
markazi direktori



L. X. Musadjanova
«12» dekabr 2025y.

Bilimlar sohasi: Sog‘liqni saqlash

**Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va
jamoat salomatligi qo‘mitasi vrach
yordamchisi (Tibbiy profilaktika ishi)**

(sikli bo‘yicha ixtisoslashtirish guruhlar uchun)

O‘QUV DASTURI

(576-kredit)

Toshkent-2025 yil

TUZUVCHILAR:

M.E.Qarshibayeva

Respublika o'rtta tibbiyot va farmasevtika
xodimlari malakasini oshirish va ularni
ixtisoslashtirish markazi Guliston filiali
direktori

M.X.Yakubova

Toshkent shahar Yunusobod tumani
SEO va JSQ shifokor- epidemiolog

TAQRIZCHILAR:

O.K.Sultanov

Toshkent shahar Yunusobod tumani
SEO va JSQ bo'limi boshlig'i

S.A.Muxamedjanova

Respublika o'rtta tibbiyot va farmasevtika
xodimlari malakasini oshirish va ularni
ixtisoslashtirish markazi o'qituvchisi

O'quv dasturi Respublika o'rtta tibbiyot va farmasevtika xodimlari
malakasini oshirish va ularni ixtisoslashtirish markazining Pedagogik kengashida
ko'rib chiqildi va tasdiqlashga tavsiya etildi.

« 9 » 12 2025 y.

bayonnoma № 6



Pedagogik kengash raisi

L.X.Musadjanova

O'quv dasturi direktorlar kengashida ko'rib chiqildi, muhokama qilindi,
tasdiqlashga tavsiya etildi.

« 12 » 12 2025 y.

bayonnoma № 5

1. Kirish

O'zbekiston Respublikasida o'rta tibbiyot xodimlarini tayyorlash, ixtisoslashtirish, tibbiyot muassasalarida hamshiralik ishini xalqaro andozalarga mos tarzda tashkil etish borasida zamonaviy tizim yaratilgan. Mazkur o'quv dasturi O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 6 maydagi "Tibbiyot va farmatsevtika ta'limi va ilm-fani tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ- 4310-son va 2020 yil 7 apreldagi "Tibbiy-sanitariya sohasida kadrlarni tayyorlash va uzluksiz kasbiy rivojlantirishning mutlaqo yangi tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ 4666-sonli qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining 2020 yil 15 iyundagi 160-sonli "Tibbiy-sanitariya va farmatsevtika kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini tashkil etish bo'yicha me'yoriy hujjatlarni yanada takomillashtirish to'g'risidagi" buyrug'i, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining 2024 yil 28 oktabr 333-sonli "O'rta tibbiyot va farmatsevtika xodimlarining malakasini oshirish va qayta tayyorlashga qo'yiladigan Davlat talablari", O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 27 dekabrda "O'zbekiston Respublikasi SSV huzuridagi Sanitariya Epidemiologik Osiyishtalik Jamoat Salomatligi qo'mitasi faoliyatini tashkil qilish chora tadbirlari" to'g'risidagi PF-230-sonli farmoni ijrosini ta'minlash maqsadida ishlab chiqilgan. Dasturda o'quv fanining mazmuni, uni o'zlashtirish shakli va usullari mujassamlashtirilgan. Dastur mazmunida nazariy bilimlarni amaliy ko'nikmalar orqali mustahkamlash va chuqur bilimlarni egallash alohida e'tiborga olingan. "Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo'mitasi vrach yordamchisi" o'quv dasturi yo'nalishining o'quv rejasi asosida tayyorlangan bo'lib, 10 yildan ortiq mehnat stajida uzilish bo'lgan o'rta tibbiyot xodimlarini 576 kredit ixtisoslashtirish uchun mo'ljallangan. Dastur fanlar modullariga ajratilgan bo'lib: kasbiy rivojlanish modulida O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining 2025 yil 15-avgustdagi "Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha xodimlarning bilim va ko'nikmalarini yanada oshirish haqida" 255-sonli buyrug'i ijrosini bajarish maqsadida "Tibbiyot sohasida korrupsiyaning oldini olish"moduli kiritildi. Kasbiy rivojlanish moduli ma'naviy va siyosiy dunyoqarashlarini kengaytirishga qaratilgan yangiliklar, shuningdek, sog'liqni saqlash tizimidagi islohatlar, tibbiyot sohasining ilm-fani va amaliyotining rivojlanishi tendensiyalari va yutuqlari, yangi texnika va texnologiyalari to'g'risida ma'lumotlar kiritilib, tibbiy ta'limda uzluksizligi va uzviyligini, fanlar va bo'limlarni ketma-ketligini ta'minlangan holda tinglovchilarni mustaqil ishlashga va fikrlashga qaratilgan o'quv materiallarini qamrab olgan. Dasturda sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo'mitasida vrach yordamchisi sifatida faoliyat olib borishni rejalashtirayotgan o'rta tibbiyot xodimlari lozim bo'lgan yangi bilim va ko'nikmalarni (bilishi mumkin, bilishi lozim, bajara olishi kerak va qaysi amaliy ko'nikmalarni o'zlashtirishi lozim) yetarli darajada o'zlashtirishga qaratilgan materiallar taqdim etilgan.

1.1. Maqsad:

O'qish natijasida "SEOJSQ vrach yordamchisi" bo'yicha hamshiralarning mavjud kompetensiyalarni takomillashtirish, kasbiy faoliyat uchun zarur yangi kompetensiyalarni egallash, mavjud malaka doirasida ularning kasbiy darajasini oshirish. SEOJSQ vrach yordamchilarining har tomonlama yetuk, yetarli bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlariga erishish, ular faoliyatini yanada takomillashtirish, normativ-huquqiy hujjatlar bilan ishlash, aholi o'rtasida salomatlik ko'rsatkichlarini yanada oshirish, yangi nazariy bilimlarni amaliy ko'nikmalar orqali mustahkamlash va chuqur bilimlarni egallashga qaratilgan

1.2. Vazifalar:

- Ixtisoslashtirish kursi o'quv jarayonini modulli tibbiy ta'lim tamoyili bo'yicha, zamonaviy, innovatsion xalqaro ilmiy-amaliy ma'lumotlarni davlat talablariga mos holda tuzilgan o'quv dasturi bo'yicha tizimli tashkillashtirish;
- sog'liqni saqlash tizimidagi islohotlar va me'yoriy hujjatlarni ish faoliyatida qo'llay olishga o'rgatish;
- O'zbekiston Respublikasi Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo'mitasining hozirgi davrdagi o'rni, oldiga qo'yilgan vazifalari, maqsadlari, ularning tuzilishidagi yangiliklar bilan tanishtirish;
- zamonaviy klinik protokollar va standartlar bilan tanishtirib, ular asosida ishlash ko'nikmalarini yangilash va mukammallashtirish;
- etika va deontologiyaning zamonaviy jihatlari bilan tanishtirish;
- aholi o'rtasida to'g'ri, ratsional ovqatlanish, zararli odatlarga qarshi kurashish, sog'lom turmush tarzini qo'llab-quvvatlash, o'sib kelayotgan avlodni sog'lomlashtirish tadbirlarini yangilash;
- tashqi muhit omillarini (kimyoviy, fizikaviy, biologik, psixogen va ijtimoiy) inson salomatligiga salbiy ta'siri

va keltirib chiqaradigan kasalliklarini oldini olish, mehnat qilish qobiliyatini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni o'rgatish;

- ichimlik suvi, ovqat mahsulotlari, atmosfera havosi hamda tuproqni ifloslantiruvchi omillarni tahlil qilish usullarini hozirgi zamon texnikasi va zamon talablari darajasida o'rgatish;
- aholi o'rtasida yuqumli kasalliklarni oldini olish chora-tadbirlarini uyushtirishni o'rgatish;
- shifoxona ichi infeksiyalarini oldini olishdagi yangiliklar bilan tanishtirish;
- zamonaviy sterilizatsiya va dezinfeksiya konsepsiyasi, usullari, vazifalari borasidagi bilim va ko'nikmalarini yangilash;
- favqulodda vaziyatlar, kechiktirib bo'lmaydigan holatlarini tahlil qila olish va kechiktirib bo'lmaydigan yordamni ko'rsatish qobiliyatini yangilash.

1.3. Ta'lim oluvchilar toifasi (kontingenti): O'quv dasturi sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmatida vrach yordamchisi faoliyatini yuritishni rejalashtirgan o'rta tibbiyot xodimlari malakaviy tavsifnomasi va lavozim yo'riqnomalariga muvofiq, ya'ni mutaxassisligini *tasdiqlovchi hujjati* bo'lgan, lekin mehnat stajida 10 yildan ortiq uzilish bo'lgan sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmati vrach yordamchilari, hamda "Hamshiralik ishi", "Akusherlik ishi", "Davolash ishi" mutaxassisligini *tasdiqlovchi hujjati* bo'lib, "Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmati vrach yordamchisi" lavozimida ishlash istagi bo'lgan o'rta tibbiyot xodimlari uchun mo'ljallangan.

1.4. O'quv dasturni o'zlashtira olish uchun zarur bo'lgan tinglovchi kompetensiyasi:

- tibbiy etika va deontologiyani amalda qo'llay oladigan mutaxassis bo'lishi;
- SEOJSQ xodimining huquqiy me'yorlarini, aholini yoshiga nisbatan hususiyatlarini bilishi;
- tibbiyot psixologiyasi va shaxslararo muloqot ko'nikmalarini amalga oshirish;
- sanitariya-epidemiologiya xizmatida asosiy me'yoriy xujjatlar va ular bilan ishlash ko'nikmalariga ega bo'lishi;
- sanitariya -gigiena, epidemiologiya haqidagi bilimlarga ega bo'lish;
- tashqi muhit omillarining, ekologik muvozanat buzilishining inson sog'ligiga ta'sirini bilishi va ish jarayonida o'rganishi;
- atrof-muhitni ifloslantiruvchi manbalar haqida ma'lumotga ega bo'lish va uni ta'sirini yo'q qilish tadbirlarini amalga oshirishi;
- somatik va yuqumli kasalliklarni oldini olish chora-tadbirlarini, kasallik o'chog'idagi vazifa va majburiyatlari haqida ma'lumotga ega bo'lish;
- shaxsiy va jamoa gigienasining ahamiyatini bilishi va aholi o'rtasida tushuntirish ishlarini olib bora olishi;
- mehnatni muhofaza qilish bo'yicha gigienik normativlarni bilish;
- epidemiolog vrach yordamchilarining epid nazorat bo'yicha olib boradigan ishlari va ularning ahamiyati mohiyatini bilishi;
- aholiga tibbiy – profilaktika, yuqumli kasalliklarni oldini olishda o'rta tibbiyot xodimining roli haqida ma'lumotga ega bo'lishlari;
- sanitar epidemiologik tadbirlarning o'rni va ahamiyati haqida ma'lumotlarga ega bo'lishi;
- dezinfeksiya haqida tushuncha, asosiy vazifalarini bilishi;
- o'z kasbiy salohiyati doirasida sanitar oqartuv, sanitar-gigienik, profilaktik vrach ko'rsatmalarini amalga oshirish;
- shoshilinch holatlarda shifokorgacha tez tibbiy yordam choralari amalga oshirish;
- mutaxassisligi bo'yicha nazariy va amaliy bilimlarga ega bo'lgan holda, uzluksiz o'z malakasini oshirishga tayyor bo'lish.

1.5. Dasturning dolzarbligi:

O'quv dasturining dolzarbligi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 27 iyuldagi "O'zbekiston Respublikasi Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmati faoliyatini tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi buyrug'i ijrosini ta'minlash doirasida, amaliy tibbiy yordamning real ehtiyojlaridan kelib chiqib, amaldagi standart va bayonnomalar, dalillarga asoslangan tibbiyot tamoyillarida kasalliklar dignostikasi, zamonaviy davolash va profilaktika choralari qo'llash, shuningdek tibbiyot huquqi bo'yicha amaldagi qonunchiligi, hamda zamonaviy ilm-fan yutuqlariga muvofiqligi, tibbiyot fani va amaliyotidagi mavjud vaziyat o'zgarishini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan.

1.6. Dastur hajmi: 4oy, 576 kredit (kuniga 6 kredit, haftada 36 kredit).

1.7. O'qish shakli:

- kunduzgi – o'qish, ishdan ajralgan holda.

• on/offline, masofaviy / an'anaviy o'qish ishdan ajralgan/ ajralmagan holda.

1.8. Mashg'ulotlarni o'tish tartibi: Mashg'ulotlar "Tibbiy-sanitariya va farmatsevtika kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini tashkil etish to'g'risidagi" O'zR SSV 2020 yil 15 iyundagi № 160 buyrug'i va markazning ichki tartib-qoidalarini asosida rejalashtiriladi va amalga oshiriladi.

Mashg'ulotlar 9⁰⁰ da boshlanib, 13⁴⁰ da tamom bo'ladi. Tushlik - 30 daqiqa

1.9. O'qish tugagandan so'ng beriladigan xujjat: o'quv kursini to'liq o'zlashtirgan va yakuniy attestatsiyani topshirgan tinglovchilarga "Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmati vrach yordamchisi" yo'nalishi bo'yicha ixtisoslashtirishdan o'tgan tinglovchiga Davlat talablari namunasidagi sertifikat taqdim etiladi.

2. REJALASHTIRILAYOTGAN TA'LIM NATIJALARI.

2.1. Rejalashtirilayotgan ta'lim (natijalari)dan so'ng tinglovchi kompetensiyasi:

- mutaxassisning fikrlash, tahlil va sintez qilish, jamoa bilan ishlash va uni boshqarish, intizomlilik, boshlagan ishini mantiqiy yakuniga yetkazishga tayyorligini rivojlantiradi;
- sanitariya – epidemiologiya xizmatida asosiy meyoriy xujjatlarni rasmiylashtirish ko'nikmalari rivojlanadi;
- aholi sog'lig'ini saqlash va mustahkamlash doirasida aholi orasida tibbiy madaniyat, sog'lom turmush tarzi, kasallik rivojlanishining oldini olish borasida profilaktik sanitariya targ'ibot tadbirlarini olib borish, sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini shakllantirishda innovatsion texnologiyalarni keng tadbir etadi;
- zamonaviy sterilizatsiya va dezinfeksiya usullarini qo'llash ko'nikmalari takomillashadi;
- kasallikni erta va yashirin turlarini, havf omillarini aniqlash uchun zamonaviy birlamchi, ikkilamchi profilaktik ishlarni amalga oshirish ko'nikmalarini yangilanadi;
- kommunal gigiyena, mehnat gigiyenasi, bolalar va o'smirlari gigiyenasi, ovqatlanish gigiyenasi borasidagi bilim va ko'nikmalarini yangilanadi;
- mehnat sharoitiga qo'yiladigan yangi sanitariya gigiyenik normativlarni biladi;
- vaksinalarni saqlash, transportirovka qilish qoidalariga amal qilish ko'nikmalari; yangilanadi;
- immunoprofilaktikaning mazmuni, maqsadi va turlarini bilishi va mijozda emlash bilan bog'liq bo'lgan muammolarni bartaraf etish qobiliyati shakllanadi va yangilanadi;
- kechiktirib bo'lmaydigan holatlarda shifokorgacha birinchi tibbiy yordam ko'rsatish bilim va ko'nikmalari yangilanadi.

3. DASTUR MAZMUNI.

3.1. "Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo'mitasi vrach yordamchisi" ixtisoslashtirish 576 kredit dasturi rejasi.

№	Modul va mavzular nomi	Kredit	Auditoriya mashg'ulotlari		Attestatsiya
			Nazariy mashg'ulot	Amaliy mashg'ulot	
1.0	Kasbiy rivojlantirish moduli	78	44	34	
1.1	Modul. Tibbiyot soxasida korrupsiyaning oldini olish.	6	6	-	
1.2	Modul. Tibbiyotda raqamli texnologiyalar	12	4	8	
1.3	Modul: Xorijiy til.	12	4	8	
1.4	Modul: Sog'liqni saqlash tizimidagi islohatlar va amaldagi meyoriy hujjatlar.	6	6	-	

1.5	Modul. Infekcion nazorat.	12	8	4	
1.6	Modul: Sterilizatsiyada zamonaviy usullar va texnika xavfsizligi	6	2	4	
1.7	Modul: Sogʻlom turmush tarzini shakllantirish mezonlari. Jismoniy faollik.	6	4	2	
1.8	Modul: Favqulotda holatlarda va shoshilinch holatlarda tez tibbiy yordam koʻrsatish.	18	10	8	
2.0	Mutaxassislik fani modullari	492	164	328	
2.1	Modul: SEOJSQ sohasiga oid meʼyoriy hujjatlar. Yuqumli kasalliklarni oldini olishda oʻrta tibbiyot xodimining faoliyati.	36	12	24	
2.2	Modul: Kommunal gigiena va jamoat salomatligi.	72	24	48	
2.3	Modul: Ovqatlanish gigiyenasi.	72	24	48	
2.4	Modul: Bolalar va oʻsmirlar gigiyenasi.	60	20	40	
2.5	Modul: Mehnat gigiyenasi. Mehnat sharoitiga qoʻyiladigan sanitariya gigienik talablar.	72	24	48	
2.6	Modul: Shifoxona ichi infeksiyasini oldini olish.	60	20	40	
2.7	Modul: Davolash profilaktika muassasalari gigiyenasi. Shifoxonalar joylashishi va faoliyatiga qoʻyilgan gigienik talablar.	60	20	40	
2.8	MODUL: Immunoprofilaktika. Vaksinalarni saqlash, transportirovka qilish.	60	20	40	
3.0	Attestatsiya	6			6
	Jami:	576	208	362	6

“Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qoʻmitasi vrach yordamchisi” 576 kredit ixtisoslashtirish oʻquv modullarining mazmuni.

1.1. Modul: Oʻzbekiston Respublikasining tibbiyot sohasidagi davlat siyosati. Tibbiyot sohasida korrupsiyaning oldini olish. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Bosh vazir lavozimiga nomzodni koʻrib chiqish va Vazirlar Mahkamasining yaqin va istiqbolga moʻljallangan Harakatlar dasturi muhokamasiga bagʻishlangan yigʻilishidagi nutqida belgilab berilgan. Sogʻliqni saqlash tizimidagi dasturlarni samarali va toʻliq amalga oshirishdagi asosiy vazifalar. Oʻzbekiston Respublikasining tibbiyot sohasidagi davlat siyosatining asosiy ustuvor yoʻnalishlari. Yangi Oʻzbekiston tibbiyoti-yangicha yondashuvlar asosida transformatsiya qilinayotgan tizim. Islohotlar markazida “Inson qadri uchun” degan ezgu tamoyil ustuvor. Yurtimizda aholiga koʻrsatilayotgan tibbiy xizmatlar sifatini jahon standartlari darajasiga olib chiqish maqsadida halqaro tajribani chuqur oʻrganish va amaliyotga samarali tatbiq etish borasida olib borilayotgan ishlar. Yangi Oʻzbekistonning Taraqqiyot

strategiyasida tibbiyotga doir ustuvor yo'nalishlarning mazmun-mohiyati. "Aholi salomatligi-2030" milliy strategiyasining ustuvor yo'nalishlari, vazifalari va asosiy indikatorlari. O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida shakllangan milliy qonunchilik tizimi, davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari hamda sog'liqni saqlash tizimida korrupsiyaning oldini olishga qaratilgan amaliy chora-tadbirlar. Davlat siyosatining korrupsiyaga qarshi kurashishdagi asosiy yo'nalishlari. Davlat boshqaruvi tizimini isloh qilish, davlat xizmatchilarining mas'uliyatini oshirish, raqamlashtirish orqali inson omilini kamaytirish, ochiq ma'lumotlar tizimini rivojlantirish va fuqarolik jamiyati institutlarining rolini kuchaytirish.

1.2. Modul Tibbiyotda raqamli texnologiyalar. Tibbiyot sohasida kompyuter texnologiyalaridan foydalanishdagi nazariy va amaliy bilimlarni egallash, tibbiy statistik ma'lumotlarni to'g'ri tahlil qilish, tahlil qilingan natijalardan kelib chiqqan holda kasallikning oldini olish yoki davolash yo'llarini aniqlash, axborot texnologiyalaridan foydalanish borasida asosiy amaliy ko'nikmalarga ega bo'lish.

Internet tarmog'ida ishlash, axborot qidirish va ulardan foydalanish, tibbiyot axborot tizimlari xususiyatlari, ma'lumotlar bazasini tashkil etish, ekspert tizimlari va axborot xavfsizligi asoslarini bilishi kerak. "Tibbiyot informatikasi asoslari" o'quv fanini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida:

- tibbiyot informatikasi asoslari, tushunchalari va tasavvurlarining umumiyligi;
- axborot tushunchalari va turlari. Tibbiyot masalarini yechishda informatikaning o'rni;

hozirgi zamonda informatikaning o'rni va roli, ma'lumotlarni saqlash, qayta ishlash va uzatish

1.3. Modul. Xorijiy til. Ingliz tilini o'qitishning maqsadi va vazifalari Tibbiyot xamshiralari ingliz tilini tanishtirish va tibbiyot soxasiga aloqadorligini tushuntirish xamda shu soxaga oid terminlarni o'rganish. Ingliz tili alifbosidagi xarflar va asosiy qo'llaniladigan terminlar. The verb "to be", "to have" Introducing yourself. Tana a'zolarining nomlanishi. Tibbiyotda ko'p uchraydigan kassaliklar, kasallik belgilari xamda tibbiyot mutaxassislarining nomlarini ingliz tilidagi talaffuzini o'rgatish. Tana a'zolarining nomlanishi. Tibbiyotda ko'p uchraydigan kassaliklar, kasallik belgilari xamda tibbiyot mutaxassislarining nomlarini ingliz tilidagi talaffuzini o'rgatish. Ularni og'zaki nutqda ishlatilishini amaliy mashqlar yordamida o'rgatish va qo'llash. Tibbiyot mutaxassislarining nomlarini ingliz tilidagi talaffuzini o'rgatish. Ularni og'zaki nutqda ishlatilishini amaliy mashqlar yordamida o'rgatish va qo'llash. Berilgan qo'llanmalardan foydalangan holda (At the doctor) mavzularida tinglovchilarni og'zaki nutqini rivojlantirish

1.4. Modul. Sog'liqni saqlash tizimidagi islohotlar va amaldagi me'yoriy hujjatlar. Sog'liqni saqlash tizimini Davlat dasturlari, sog'liqni saqlash tizimi islohotlariga oid Prezident Farmonlari va Vazirlar Mahkamasining qarorlari. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash tizimini isloh qilishni asosiy yo'nalishlari. Birlamchi tibbiy sanitariya yordamini isloh qilish. Onalik va bolalikni muhofaza qilish tizimini milliy modulini yaratish. Shoshilinch tibbiy yordamni samarali va to'liq tizimini yaratish. Aholiga ixtisoslashtirilgan tibbiy yordamni rivojlantirish. Ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan kasalliklarga qarshi kurashish chora-tadbirlarini takomillashtirish. Sog'liqni saqlash tizimida yangi davr. Tibbiyot kadrlarini tayyorlash tizimini takomillashtirish. Respublikada epidemiologik barqarorlikka erishish va uni ushlab turish. Davlat xususiy - sheriklik va tibbiyot turizmini rivojlantirish borasida islohotlarning mazmun mohiyati. Sog'liqni saqlash tizimini tashkil etishning yangi modeli va davlat tibbiy sug'urtasi mexanizmlarini Sirdaryo viloyatida joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi prezidentining qarori. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 12 noyabrdagi "Sog'liqni saqlash tizimini tashkil etishning yangi modeli va davlat tibbiy sug'urtasi mexanizmlari. Sog'liqni saqlash tizimini tashkil etishning yangi moduli va davlat tibbiy sug'urtasi mexanizmining huquqiy asoslari. Sog'liqni saqlash tizimidagi me'yoriy hujjatlar.

1.5. Modul. Infekcion nazorat. Infeksiya haqida tushuncha. Epidemiologiya asoslari. Infekcion nazorat, maqsad va vazifalari. Shifoxona ichi infeksiyalari profilaktikasi. SanQvaM -0342-17, SanQvaM- 0317-15. Sanitariya epedimiologiya sohasida qo'llaniladigan me'yoriy hujjatlar. Ularning maqsadi, aholi salomatligini saqlash, kasallanishlarning oldini olish, aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligi sohasidagi munosabatlarni tartibga solish. Sanitariya qoida va me'yorlari bo'yicha ish olib borish. Tibbiy chiqindilarni yig'ish, saqlash va yo'q qilish.

Karantin va o'ta havfli yuqumli kasalliklar haqida umumiy ma'lumotlar. Karantin va o'ta havfli yuqumli kasalliklar guruhiga kiruvchi kasalliklar, ularning profilaktikasi. O'ta havfli yuqumli kasalliklar aniqlanganda epidemiyaga qarshi chora-tadbirlar rejasi. OIV va OITS haqida tushuncha. Avariya holatlar haqida ma'lumot.

Davolash profilaktika muassasalarida yuqumli kasalliklarning oldini olish va kamaytirishga qaratilgan profilaktika hamda epidemiyaga qarshi chora-tadbirlar o'tkazish. SanQvaM bo'yicha joriy va mukammal tozalash o'tkazish. Qo'llarga gigienik ishlov berish usullari, texnikasi va qo'llarni yuvish tartibi.

1.6.Modul. Sterilizatsiyada zamonaviy usullar va texnika xavfsizligi. Sterilizatsiyani olib borish xonalaridagi aseptika va antiseptika tadbirlari, ularning talab darajasida bajarilish tartib va qoidalari. Markazlashtirilgan va markazlashtirilmagan sterilizatsiya bo'limlari turlari. Zamonaviy sterilizatsiya apparatlari va texnika xavfsizligi masalalari. Sterilizatsiyaning sifatini ta'minlovchi tadbirlar, uni tekshirish uchun zarur indikatorlar.

1.7. Modul. Sog'lom turmush tarzini shakllantirish mezonlari. Jismoniy faollik. Sog'lom turmush tarzini tashkil etish asoslari.Sog'lom turmush tarzini shakllantirishda maqsadli guruhlar bilan ishlash. Atrof muhit va ekologik omillarning salomatlikka ta'siri, to'g'ri ovqatlanish prinsiplari, kun tartibini to'g'ri tashkil etish, jismoniy faollik va chiniqishning salomatlikdagi ahamiyati, zararli odatlarning organizmga ta'siri, tibbiy ko'riklarni tashkil etish va aholini jalb etish

1.8.Modul: Favqulotda vaziyatlar va shoshilinch holatlarda tez tibbiy yordam ko'rsatish.

Favqulotda vaziyatlar haqida tushuncha. Favqulotda vaziyatlar tasnifi, uning turlari, kelib chiqish sabablari, manbalari. Jabrlanuvchilarni saralash tartibi. Tibbiy saralash (trijaj usuli) va evakuatsiya qilish. Transportirovka usullari. Jabrlanuvchini ahvolini baholash, asosiy hayotiy ko'rsatkichlarni aniqlash. Bemor uchun zarur vaziyatni yaratish.Ommaviy talofat o'chog'ida birinchi yordam kursatish: o'tkir qon ketishlarda birinchi tibbiy yordam, jarohatlarda, suyak sinishlarda va Krash sindromida birinchi yordam. Kuyish, turlari, belgilari. Kuyishda shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatish tamoyillari. Inson hayotiga xavf soluvchi holatlarda shoshilinch yordam ko'rsatish: cho'kishda birinchi yordam, bo'g'ilishda birinchi yordam, elektrdan shikastlanishda birinchi yordam, o'tkir zaharlanishlarda birinchi yordam, sovuq urishi va issiqlik urishida birinchi yordam, xasharotlar chaqishida va xayvonlar tishlaganda tez tibbiy yordam ko'rsatish.O'tkir yurak qon tomir va nafas yetishmovchiligi,kelib chiqish sabablari.Nafas yullari obstruksiyasi.Yot jism nafas yullariga tushganda Geymlix usulini ko'llash texnikasi. Terminal holatlar, klinik va biologik o'lim belgilari. Hayotiylikni ushlab turishni erta boshlash usullari. Yurak -o'pka reanimatsiyasi (SAB) va uni bajarish algoritmi. Kritik holatlar (xushdan ketish, kollaps, shok, koma). Turlari, sabablari, klinik belgilari va yordam ko'rsatish.

2.1. Modul: SEOJSQ sohasiga oid me'yoriy hujjatlar. Yuqumli kasalliklarni oldini olishda o'rta tibbiyot xodimining faoliyati.Respublikamizda Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmati markazi (SEOJSQ)ning o'rni, oldiga qo'yilgan vazifalar, maqsad, ularning tuzilishini taxlil qilish. O'zbekiston Respublikasi SSV tomonidan chiqarilgan mutaxassislikka oid buyruqlar va ular asosida ishlash. Yuqumli kasalliklarni oldini olishda o'rta tibbiyot xodimining tutgan o'rni va vazifalari. Yuqumli kasalliklar, infeksiyon jarayon, kasallik manbalari haqida tushuncha. Aholi o'rtasida yuqumli kasalliklarni oldini olish chora-tadbirlari. Kasalxona ichi infeksiyalarini oldini olish. Davlat sanitariya nazorati qoidalari va xodimlar to'g'risidagi qoida, hamda tashkilotning ichki tartib qoidalari. Sterilizatsiya va dezinfeksiya konsepsiyasi, usullari, vazifalari. Sanitar epidemiologik tadbirlarning o'rni va ahamiyati. SEOJSQ xodimining xuquqiy ma'suliyatlari. Sanitariya-epidemiologiya xizmatida asosiy me'yoriy hujjatlar va ular bilan ishlash. Sanitariya gigiyena laboratoriyasi oziq-ovqat gigiyenasi, mehnat gigiyenasi, kommunal gigiyena bo'linmasida yuritiladigan hujjatlarni rasmiylashtirish tartibi. Bo'linmadagi asbob uskunalardan foydalanish qoidalari.

2.2. Modul: Kommunal gigiyena va jamoat salomatligi.Kommunal gigiyena bo'limining maqsad va vazifalari, ogohlantiruvchi va joriy nazoratni o'tkazishda ishlatiladigan me'yoriy hujjatlar va hisob shakllarini to'ldirish, sanitariya qoidalarini buzganligi, to'xtatish va ruxsat etmaslik to'g'risidagi qarorlarni to'ldirish. Sanitariya gigiyena tadbirlarini amalga oshirish, yuqumli va yuqumsiz kasalliklarni tarqalishini oldini olish va tashqi muhitning ifloslanishiga qarshi kurash. Fan va texnika taraqqiyotining kommunal gigiyena fani rivojiga ta'siri. Suv ta'minoti manbalari va ichimlik suv sifati meyorlari. Suv havzalarini sanitariya jihatidan muhofaza qilish, turar joylarni ozoda tutish va tuproqlarni sanitariya jihatidan muhofaza qilish. Toza ichimlik suvini yetkazib berishda va sifatini nazorat qilishda laboratoriyaning ahamiyati. Ichimlik suviga qo'yiladigan Davlat standartlari talablari. Suvni organoleptik, fizik, kimyoviy va bakteriologik tarkibini aniqlash. Chiqindi suvlarini mexanik usulda tozalash. Tuproqning gigiyenik va epidemiologik ahamiyati, bakteriologik va gelmentologik tekshirishi uchun namunalarni olish. Tuproqni muhofaza qilish, fizik kimyoviy tekshirishlar uchun tuproqdan sinama olish. Tuproqdan sinama olish (geksoxloran va DDT ni aniqlash). Turar joylarni loyixalash, atmosfera havosini va sanitariya holatini yaxshilash, aholini toza ichimlik suvi bilan ta'minlash chora-tadbirlari. Turar joy, ma'muriy binolar va davolash profilaktika muassasalarining gigiyenik holatini yaxshilash chora-tadbirlari. Turar joy havosining harorati, namligi, harakat tezligi va atmosfera bosimini aniqlash va gigiyenik baholash, hujjatlarni rasmiylashtirish. Turar joy

binosini sanitariya gigiyenik jihatdan tekshirish va kartasini to'ldirish. Yorug'lik koefitsientini aniqlash. Shovqin va shovqin darajasini aniqlash. Vibratsiyani o'lchash va jurnalga qayd qilish.

2.3.Modul: Ovqatlanish gigiyenasi.

Sanitariya gigiyena tadbirlarini amalga oshirish, yuqumli va yuqumsiz kasalliklarni tarqalishini oldini olish va tashqi muhitning ifloslanishiga qarshi kurash. "Oziq-ovqat mahsulotlarining sifati va xavfsizligi to'g'risidagi" qonun mohiyati va mazmuni. O'zbekiston Respublikasi SSV tomonidan joriy etilgan qaror va buyruqlar bilan ishlash va amaliyotga tadbiriq etish. O'rta tibbiyot xodimlarining lavozimlik vazifalari. Go'sht va go'sht mahsulotlarining inson organizmi uchun ahamiyati. Go'sht va go'sht mahsulotlarining sifati belgilovchi meyoriy o'lchovlar. Davlat andozasining uslubiy qo'llanmasidan foydalanish. Fan texnika yutuqlariga tayanib, zamonaviy laboratoriya asbob-anjomlari bilan ishlash. Oziq-ovqat mahsulotlarini iste'molga loyiqligini aniqlash. Go'sht va go'sht mahsulotdan laboratoriya tekshiruvlari uchun namunalar olish, yo'llanmalar to'ldirish, laboratoriyaga yetkazish, tekshiruvga tayyorlash va tekshirish. Davlat andozalari uslublariga amal qilish va uning ahamiyati. Davlat andozalari bo'yicha tekshiruvlarni laboratoriya sharoitda o'tkazish, organoleptik, fizik va kimyoviy ko'rsatgichlarini aniqlash. Ovqatlanish gigiyenasi bo'yicha ish yuritish. Go'sht va go'sht mahsulotlaridan laboratoriya tekshiruvlari uchun namunalar olish, yo'llanmalar to'ldirish, laboratoriyaga yetkazish, tekshiruvga tayyorlash va tekshirish o'tkazishda Davlat andozalariga amal qilish. Ovqatdan zaharlanishlarda birinchi yordam berish. Sog'lom turmush tarzi tamoyillari. Aholi o'rtasida sog'lom turmush tarzini targ'ibot etish.

2.4. Modul: Bolalar va o'smirlar gigiyenasi.

Bolalar va o'smirlar gigiyenasining mazmun-mohiyati, vazifalari. Bolalar va o'smirlar gigiyenasiga taalluqli derektiv hujjatlar. Bolalar va o'smirlar gigiyenasining tarkibiy qismlari. Bolalar va o'smirlar gigiyenasining klinik fanlar hamda biologiya, pedagogika, texnika fanlari bilan integratsiyasi. Bolalar va o'smirlar gigiyenaning nazariy-uslubiy asoslari. Bolalar va o'smirlar organizmining o'sishi va rivojlanishining yoshga nisbatan anatomik-fiziologik xususiyatlari. Bolalar va o'smirlarning yoshiga mos ta'lim tarbiya ishlari, kun tartibi, ovqatlanish, bolalarning kiyim -kechaklari, bolalar muassasalarini jihozlash chora-tadbirlarni ishlab chiqish. Sanitariya vrach yordamchisining vazifalari asosiy tibbiy hujjatlar bilan ishlash. Maktabgacha va maktab yoshidagi bolalar o'rtasida o'rta tibbiyot xodimlari lavozim vazifalari. Bolalar va o'smirlarning salomatligini tiklash borasida ish olib borish. Bolalar va o'smirlarning jismoniy rivojlanishini dinamikada kuzatish va baholash usullari. Tibbiy profilaktika ishini tashkillashtirishda etik kategoriyalarni to'g'ri hal etish. Asosiy meyoriy hujjatlar bilan ishlash. Tibbiy profilaktika ishini takomillashtirish, bolalar va o'smirlar salomatligini mustahkamlash borasida ish olib borish. Ovqatlanishning fizikaviy meyor va ovqatdan zaharlanishlar. Bolalar va o'smirlar ovqatlanish meyorlari, ovqatlanish tartibi.

2.5.Modul: Mehnat gigiyenasi. Mehnat sharoitiga qo'yiladigan sanitariya gigiyenik talablar.

Mehnat gigiyenasi asoslari va vazifalari uni rivojlanish tarixi. O'zbekistonda mehnat gigiyenasining rivojlanishi, ish sharoitini yaxshilash, kasallikni oldini olish va kamaytirish bo'yicha erishgan yutuqlari. O'zbekiston Respublikasining "Aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligi to'g'risida"gi qonuni, "Fuqaro salomatligini saqlash", "Respublika Sog'liqni Saqlash tizimi isloh qilish dasturi to'g'risida" gi qonunlar. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi. Mehnat to'g'risida Nizomlar. Mehnat va zaharli ximikatlar gigiyenasi bo'linmalariga tegishli SanQvaM, meyoriy hujjatlari, ularning mohiyati va joriy sanitariya nazoratida qo'llash. Sanitariya vrach yordamchisining sanitar nazoratini o'tkazishdagi roli, uning huquq va vazifalari. Normativ-texnik hujjatlarni ishlab chiqayotgan yuridik va jismoniy shaxslar, aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligini ta'minlashga qaratilgan sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlariga rioya etish. Yangi kimyoviy moddalar va biologik vositalar, ionlashtiruvchi nurlanish manbalari hamda tarkibida shu manbalar mavjud bo'lgan asboblarni, materiallarni, texnologik jarayonlarni, uskunalarni, atir-upa va pardo mahsulotlarini va boshqa xalq iste'moli tovarlarini joriy etishdan oldin aholining sanitariya-epidemik xavfsizligini ta'minlashga doir normativlar. Normativlarga rioya etilishi ustidan nazorat qilish uslublari. Zararli mahsulot va chiqindilarni zararsizlantirish, utilizatsiya qilish usullarini ishlab chiqish. Mehnat gigiyenasi, mehnatni muhofaza qilish sohasida sanitariya-gigiyena meyoriy qoidalarini ishlab chiqish va ularni ishlab chiqarishga taqdim etilishi. Mehnat va zaharli ximikatlar gigiyenasi. Xavfli va zararli ishlab chiqarish omillarining tasnifi. Kasb kasalliklari haqida tushuncha. Zaharlarning organizmga kirish va organizmda yig'ilish yo'llari va uning ta'sirini belgilaydigan omillar. Muhim sanoat zaharlarining ruxsat etilgan miqdori. Ish joyida zararli moddalarning ruxsat etilgan miqdori (REM). Sanitariya vrach yordamchilari ish faoliyatlari davomida qo'llaniladigan asosiy meyoriy tibbiy xujjatlar va ular bilan ishlash. Aholi orasida tibbiy profilaktika ishini tashkillashtirishda etik kategoriyalarni to'g'ri hal etish. Kasb kasalliklari, turlari, tibbiy profilaktika shifokori yordamchisining huquq va burchlari. Tibbiy profilaktika ishini takomillashtirish, aholi salomatligini mustahkamlash, mehnatni to'g'ri tashkil

etish, zaharlanishlarni oldini olish texnologik chora-tadbirlari. Kasallanish sabablari va vaziyatlarni aniqlash, bayonnomalar tuzish. Zararli moddalarni tezkor usulda aniqlash. Havo tarkibini aniqlashda reaktiv eritmalar bilan ishlash. Zaharli moddalarni ekspress usulda, analitik tarozida, titrometrik, kolorimetrik, nefelometrik usullar bilan aniqlash. Havo namunalarini olish va tahlil natijalarini qayd qilish. Xlororganik va fosfororganik moddalardan zaharlanishlarda tibbiy yordam ko'rsatish. Kasbiy zaharlanishlarni tekshirish. Tok urganda birinchi yordamni ko'rsatish. Ishlab chiqarishdagi yoritilganlikni o'lchash, kichik korxonalarni tekshirish.

2.6. Modul: Shifoxona ichi infeksiyasini oldini olish. Davolash profilaktika muassasa xonalarida sanitariya epidemiologiya nazorati, davolash profilaktika muassasalarida epidemiologiyaga qarshi chora-tadbirlar va dezinfeksiya qoidalariga rioya qilish yo'llari. DPMlarda sanitariya-epidemiologiya rejimlari va ularga amal qilish.. Shifoxona ichi infeksiyasini oldini olish. SanQvaM 0342-17ning mazmun-mohiyati va unga rioya qilish. Infekcion nazorat komissiyasi, tarkibi va ularning vazifalari. Gospital, nozokomial infeksiya haqida tushuncha. Shifoxona ichi infeksiyalari va davolash profilaktika muassasalarida olib boriladigan davlat sanitariya nazorati va nazoratdagi kamchiliklar haqida tushuncha. Shifoxona ichi infeksiyalari etiologiyasi, aniqlash yo'llari, doimiy epidemiologik kuzatuvni yuritish. "Shifoxona ichi infeksiyasi profilaktikasi" sanitariya qoida va meyorlari (SanQvaM 0342-17). Davolash -profilaktika muassasalarida tibbiy chiqindilarni utilizatsiya qilish sanitariya qoida va meyorlari (SanQvaM 0317-15). Shifoxona ichi infeksiyasi profilaktikasi bo'yicha amalga oshiriladigan sanitar-gigiyenik va epidemiyaga qarshi kurashish chora-tadbirlari. Dezinfeksiya, dezinseksiya, deratizatsiya va sterilizatsiya usullari. OIV/OITS haqida tushuncha, oldini olish.

2.7 Modul: Davolash profilaktika muassasalari gigienasi. Shifoxonalar joylashishi va faoliyatiga qo'yilgan gigienik talablar. DPM lar turlari va faoliyati. Amaldagi me'yoriy hujjatlar. DPM larda dezinfekcion tartibga rioya qilish Davlat sanitariya nazoratini olib borishda o'rta tibbiy xodimlarining o'rni. Davlat sanitariya nazorati, gigienik normalar, standartlar, qoidalar, qonuniy hujjatlar bilan ishlash. Sanitar qoidalarini buzganlik to'g'risidagi bayonnomalar. Ogohlantiruvchi va joriy sanitariya nazoratini o'tkazishda ishlatiladigan me'yoriy hujjatlar. Atrof muhit faktorlaridan (suv, tuproq, havo, oziq-ovqat mahsulotlari) olingan namunalar natijalarini tahlil qilish.

2.8 Modul: Immunoprofilaktika. Vaksinalarni saqlash, transportirovka qilish.

Aholi o'rtasida yuqumli kasalliklarga qarshi emlash, yuqumli kasalliklarni oldini olish. Sog'liqni saqlash tizimidagi profilaktik emlashga doir derektiv va me'yoriy hujjatlar. O'zbekistonda yuqumli kasalliklarni oldini olish immunoprofilaktikasida SanQvaM 0342-17ga amal qilinishi. Epidemiyaga qarshi mujassamlashgan o'ziga xos profilaktika tadbirlarini ahamiyati. Epidemiyaga qarshi tadbirlar o'tkazish, aholi o'rtasida immunizatsiya ishlarini tashkil etish. Immunitet to'g'risida tushuncha va turlari. Yuqumli kasalliklar manbai, ularni tarqalish yo'llari va sabablari. Yuqumli kasalliklar (bo'g'ma, ko'kyo'tal, qoqshol, poliomiyelit, sil, qizamiq, yuqumli parotit va boshqalar) bilan kasallanishni kamaytirish. Emlash taqvimini bilan ishlash. Rejali ravishda emlash. Katta yoshdagi kishilarni emlash va ulardagi muammolarni aniqlash. Emlanishi lozim bo'lgan aholi soni hisobotini olib borish. Vaksina va uning turlari haqida tushuncha. Vaksinalarni ishlab chiqarish, saqlash va transportirovka qilish tartibi. Emlashga taaluqli bo'lgan hujjatlarni rasmiylashtirish tartibi, hisobot tuzish va monitoringini yuritish (f.063/u va 064/u). Emlash jadvaliga asosan yangi tug'ilgan chaqaloqlarni o'z vaqtida patronaj qilish va emlash jadvali sanasiga asosan amalga oshirish. Emlashdan keyingi asorat va nojo'ya ta'sirlarini aniqlash maqsadida patronaj qilish. Anafilaktik shokda shoshilinch yordam ko'rsatish. Olib borilgan emlash ishlari yuzasidan har oyda hisobotni olib borish.

4. DASTURNI AMALGA OSHIRISHNING TASHKILY-PEDAGOGIK TA'MINOTI

4.1. O'quv bazalari: Respublika o'rta tibbiyot va farmatsevtika xodimlari malakasini oshirish va ularni ixtisoslashtirish markazi, Shifokorlar ko'chasi-2, 14-uy. Davolash profilaktika muassasalari qoshidagi o'quv bazalari.

Amaliyot bazasi: davolash profilaktika muassasalari qoshidagi o'quv bazalari.

4.2. Mashg'ulotlarni o'tkazish uchun zarur jihozlar ro'yxati:

Modul buyicha dars olib borish uchun nazariy, amaliy va seminar darslar o'tiladigan o'quv auditoriyalari
Multimedialli jamlanma: slaydlar to'plami bo'lgan rrt ko'rinishli ma'ruzalar SD diskda ko'rgazma materiallar, ekran videofilmlar.

Klinik amaliyko'nikmalarnimustaxkamlash treningo'quvxonasimulyaj, fantom v.b jihozlar.

Mavzular bo'yicha turli jadvallar, tasviriy ko'rgazma va qo'llanmalar,

4.3.1. Qonunchilik va me'yoriy-huquqiy hujjatlar:

1.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 6 maydagi "Tibbiyot va farmasevtika ta'limi va ilm-fani tizimini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ- 4310-son qarori.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 7 apreldagi “Tibbiy-sanitariya sohasida kadrlarni tayyorlash va yanada uzluksiz kasbiy rivojlantirishning mutlaqo yangi tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ 4666-sonli qarori.

3. O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining 2020 yil 15 iyundagi 160-sonli “Tibbiy-sanitariya va farmasevtika kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini tashkil etish bo‘yicha me‘yoriy hujjatlarini yanada takomillashtirish to‘g‘risidagi” buyrug‘i.

4. O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining me‘yoriy hujjatlari.

4.3.2. Asosiy adabiyotlar:

1. SanQvaM № 0342/17 - 10 yanvar 2017 yil

2. Yu.Allayorov Yu.Tojiboev “Favkulodda vaziyatlarda tez tibbiy yordam asoslari.”

3. Azizov M.A. «Umumiy gigiena va ekologiya» Toshkent, «Ilm ziyo», 2014 yil.

4. Esonturdiyev S.S, Qarshiboeva M.E, «Gigiena va sanitariya tekshirishlar texnikasi» Toshkent, «Ilm ziyo», 2007 yil.

5. Do‘shanov D.A, Iskandarova Sh.T, Solixojayev S.S. «Umumiy gigiena» Toshkent, «Ilm ziyo», 2001 yil.

6. A.B.Ganixojayeva, X.A.Nazarova. «Mikrobiologiya» Toshkent, «Ilm Ziyo» nashriyoti, 2014 yil.

7. E.E.Eshboev «Mikrobiologiyadan amaliy mashg‘ulotlar» Toshkent, «Ilm Ziyo» nashriyoti, 2011 yil

8. Fayziev Y.M., Fayzieva X.A. “Epidemiologiya va tibbiy parazitologiya» Toshkent, “Ilm ziyo” nashriyoti, 2007 yil

9. Bo‘ronov M.A, Mirjonov K.M. “Tibbiyot parazitologiyasi va epidemiologiya asoslari”. Toshkent, “Ilm ziyo” nashriyoti, 2004 yil

4.3.3. Elektron ta‘lim resurslari:

1. O‘zR Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi – www.edu.uz

2. O‘zR Sog‘liqni saqlash vazirligi - www.minzdrav.uz

3. Medpoisk <http://www.medpoisk.ru/>

4. Russkiy meditsinskiy server <http://www.rusmedserv.com/>

5. Meditsinskiy katalog ROS-MEDIC <http://ros-medic.ru>

6. www.adti.uz

7. <http://www.medlinks.ru>

5. YAKUNIY ATTESTATSIYA

5.1. Yakuniy attestatsiyaga qo‘yiladigan talablar

Yakuniy attestatsiya O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash Vazirligining 2020 yil 15 iyundagi 160-sonli buyruq 3-ilovasidagi “Tibbiy-sanitariya va farmatsevtika kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish ta‘lim muassasalarida tinglovchilarning kasbiy bilim va ko‘nikmalarini baholash to‘g‘risidagi Nizom” asosida o‘tkaziladi.